

# 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA HARFLARNI O'RGANISH VA YOZISH MASHQLARI

**Kushbakova Dildora Bozorovna**

*Jizzax shahar 9-umumta'lim maktabi*

*boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola boshlang'ich ta'limning muhim bosqichi hisoblangan 1-sinf ona tili darslarida harflarni o'rganish va yozish mashqlari metodikasiga bag'ishlangan. Maqolada savod o'rgatish davrining o'ziga xos xususiyatlari, harflarni o'rgatishning bosqichma-bosqich tizimi, yozuv malakalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarning yozuv gigiyenasi qoidalariga rioya qilishlari, harflarni to'g'ri va chiroyli yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali metod va usullar yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida 1-sinf o'quvchilarining yozuv malakalarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yozuvga o'rgatish, harflar, yozish mashqlari, husnixat, 1-sinf, ona tili, o'qitish metodikasi, yozuv malakalarini shakllantirish, yozuv gigiyenasi.

## **Kirish.**

Boshlang'ich ta'lim – bu shaxs kamolotining poydevori hisoblanadi. Ayniqsa, 1-sinf davri bolaning muntazam o'qish faoliyatiga ilk qadam qo'yadigan, eng muhim bilim va ko'nikmalarni egallaydigan mas'uliyatli bosqichdir. Shu davrda ona tili darslarida harflarni o'rganish va yozish mashqlari orqali o'quvchilarning savodxonlik darajasiga asos solinadi .

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, yangi avlod darsliklarining yaratilishi va o'qitish metodikasining takomillashtirilishi boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldiga yangi vazifalar qo'ymoqda. 1-sinf ona tili darslarida harflarni o'rganish va yozish mashqlari nafaqat texnik ko'nikma, balki o'quvchilarning nutqiy, aqliy va estetik rivojlanishining muhim omili sifatida qaralishi lozim .

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir davrda qo‘l yozuvining ahamiyati, uning inson miya faoliyati, xotirasi va nutqi bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Shu sababli, 1-sinfda harflarni o‘rganish va yozish mashqlarini samarali tashkil etish masalasi doimo diqqat markazida bo‘lishi zarur.

Ushbu maqolaning maqsadi – 1-sinf ona tili darslarida harflarni o‘rganish va yozish mashqlarini tashkil etishning metodik asoslarini yoritish, mavjud tajribalarni tahlil qilish va samarali tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **1-sinfda yozuvga o‘rgatishning bosqichlari**

1-sinfda yozuvga o‘rgatish savod o‘rgatish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinflar dasturiga ko‘ra, bu jarayon bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi:

Tayyorgarlik davri (harfgacha bo‘lgan davr). Ushbu davrda o‘quvchilar yozuvning gigiyenik talablari bilan tanishtiriladi: to‘g‘ri o‘tirish qoidalari, ruchkani to‘g‘ri ushlash, daftarni to‘g‘ri joylashtirish. Shuningdek, qo‘l mushaklarini yozuvga tayyorlash maqsadida turli chiziqlar, ovallar, ilgaklar chizdiriladi, shtrixovkalar bajariladi. Bu davrda barmoqlarning mayda motorikasi rivojlantiriladi, bu esa keyingi bosqichlarda harflarni chiroyli va to‘g‘ri yozishga zamin yaratadi.

Asosiy (harf) davri. Bu davrda o‘quvchilar bosma va yozma harflar bilan tanishadilar, harflarning elementlarini, yozilish tartibini o‘rganadilar. Dastlab birinchi sinf o‘quvchilari alohida harflarni, keyin esa harf birikmalari, bo‘g‘inlar, so‘zlar va gaplarni yozishga o‘tadilar. Har bir harfni o‘rganishda quyidagi ketma-ketlikka amal qilinadi: harfning bosma shakli bilan tanishish, uning yozma shaklini ko‘rsatish, havoda yozish, namuna asosida yozish, mustaqil yozish .

Yakuniy (harfdan keyingi) davr. Ushbu davrda o‘quvchilarning yozuv malakalari mustahkamlanadi, yozish sur‘ati asta-sekin tezlashtiriladi, matnlarni ko‘chirish, diktant yozish kabi murakkabroq ish turlari bajariladi. Bu davrda husnixatga alohida e‘tibor qaratiladi, harflarning shakli, o‘lchami, qiyaligi, bir-biriga to‘g‘ri ulanishi ustida ishlanadi .

## **Harflarni o'rgatish metodikasi**

1-sinf ona tili darslarida harflarni o'rgatishda quyidagi metodik usullardan foydalanish samarali natija beradi:

Tovushdan harfga o'tish usuli. Dastlab o'quvchilar yangi tovush bilan tanishadilar, uning talaffuzi, artikulyatsiyasi ustida ishlaydilar, so'z tarkibida bu tovushni topadilar. Keyin esa shu tovushning harf bilan belgilanishi, harfning bosma va yozma shakllari o'rgatiladi. Bu usul o'quvchilarning fonematik eshitish qobiliyatini rivojlantiradi va tovush-harf tahlilini o'zlashtirishga yordam beradi .

Elementlari o'xshash harflarni guruhlab o'rganish. Yozma harflar o'zining grafik tuzilishiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi: oval asosli harflar (o, a, b, d, f va boshqalar), ilgakli harflar (i, u, n, k va boshqalar), yuqori halqali harflar (l, m, ya va boshqalar), pastki halqali harflar (u, z, d va boshqalar). Shu kabi o'xshash elementli harflarni ketma-ket yoki parallel o'rgatish o'quvchilarning yozuv malakalarini tezroq shakllantirishga imkon beradi .

Namuna asosida yozish va mustaqil mashqlar. Har bir yangi harfni o'rganishda o'qituvchi doskada harfning yozilishini namoyish qiladi, yozilish tartibini tushuntiradi. So'ngra o'quvchilar havo daftarida, keyin esa oddiy daftarda harfni yozadilar. Dastlab yirikroq, keyin esa maydaroq harflar yozdiriladi. Mustaqil mashqlar jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchining ishini kuzatib boradi, xatolarni o'z vaqtida tuzatadi .

Harflarni ulashga o'rgatish. 1-sinfda harflarni to'g'ri ulash alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar harflarning yuqori, o'rta va pastki ulanish turlari bilan tanishtiriladi. Dastlab ikki harfli birikmalar, keyin esa uch va undan ortiq harfli birikmalar yozdiriladi. Harflarni ulashga o'rgatishda ritm va sur'atga e'tibor qaratish lozim .

## **Yozuv gigiyenasi qoidalari**

1-sinf o'quvchilarida yozuv malakalarini shakllantirishda yozuv gigiyenasi qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega :

To'g'ri o'tirish qoidalar: o'quvchi stulda to'g'ri o'tirishi, orqasi suyanchig'iga taqalib, ikki oyog'i polga to'liq tegib turishi, stol bilan ko'krak oralig'ida bir mushtcha joy bo'lishi, boshi bir oz oldinga egilgan bo'lishi lozim.

Daftarni to'g'ri joylashtirish: daftar stol ustida qiyalatib qo'yiladi, uning pastki chap burchagi ko'krakning o'rtasiga to'g'ri kelishi kerak. Yozish jarayonida daftar asta-sekin yuqoriga surib boriladi.

Ruchkani to'g'ri ushlash: ruchka uch barmoqda ushlanadi – bosh va o'rta barmoqlar ushlaydi, ko'rsatkich barmoq esa yuqoridan yozish jarayonini boshqaradi. Ruchkani barmoqlar orasida qattiq qismasdan, erkin ushlash lozim. Ruchkaning oxirgi uchi o'ng yelkaga qaratilgan bo'lishi darkor. Yozish jarayonida bosim bir xil bo'lishi, ruchka qog'ozni tirnamasligi kerak.

Yorug'likning to'g'ri tushishi: yorug'lik chap tomondan (chap qo'l bolalar uchun o'ng tomondan) tushishi lozim. Stol ustida soyaning bo'lmasligi, ko'zni qamashtirmasligi muhim.

### **O'quvchilarning tipik xatolari va ularni bartaraf etish yo'llari**

1-sinf o'quvchilari harflarni o'rganish va yozish jarayonida turli xatolarga yo'l qo'yadilar. Eng ko'p uchraydigan xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari quyidagilardan iborat:

Harflarning shaklini buzish. Ba'zi o'quvchilar harf elementlarining nisbatiga rioya qilmaydilar, ovallarni cho'zib yoki kichraytirib yozadilar, ilgaklarni noto'g'ri bajaradilar. Bunday xatolarni bartaraf etish uchun harf elementlarini alohida mashq qildirish, kataklarda harfni to'g'ri joylashtirishga o'rgatish, namuna asosida ko'p marta yozdirish tavsiya etiladi.

Harflarning qiyaligiga rioya qilmaslik. Ko'pincha o'quvchilar harflarni tik yoki har xil qiyalikda yozadilar. Bu xatoni bartaraf etish uchun qiya chizikli daftarlarda yozish, qiyalik chiziqlariga e'tibor berish, qo'l harakatini to'g'ri yo'naltirish ustida ishlash kerak.

Harflarni noto'g'ri ulash. O'quvchilar harflarni bir-biriga noto'g'ri ulaydilar, ulanish chiziqlarini tushirib qoldiradilar yoki ortiqcha ulanish chiziqlari qo'shadilar. Bu xatolarni bartaraf etish uchun harflarni ulash turlarini (yuqori,

o'rta, pastki) alohida o'rgatish, bo'g'in va so'zlar yozdirish, ulanishlarni qizil rangda ko'rsatish kabi usullardan foydalanish mumkin.

Chiziq'larga rioya qilmaslik. Ayrim o'quvchilar harflarni ishchi chiziqdan tashqariga chiqarib yozadilar, harflar balandligiga rioya qilmaydilar. Buning oldini olish uchun doimiy ravishda chiziq'larga e'tibor qaratish, harflarni to'g'ri joylashtirishni nazorat qilish, harf elementlarining chiziq'lardagi o'rnini tahlil qilish zarur.

### **Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish**

1-sinf ona tili darslarida harflarni o'rganish va yozish mashqlari samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega :

Interfaol metodlar. "Aqliy hujum", "Klaster", "Venn diagrammasi", "Insert" kabi interfaol metodlar yordamida o'quvchilarning harflar haqidagi bilimlarini faollashtirish, ularni tizimlashtirish mumkin. Masalan, "Klaster" metodidan foydalanib, o'quvchilar o'rgangan harflarini guruhlashtiradilar, ular ishtirokida so'zlar tuzadilar.

Didaktik o'yinlar. "Harfni top", "So'z yasash", "Zanjir", "Kim chaqqon" kabi o'yinlar orqali o'quvchilarning harflarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni mustahkamlash mumkin. Didaktik o'yinlar dars jarayonini jonlantiradi, o'quvchilarning faolligini ta'minlaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Multimedia vositalari, elektron darsliklar, ta'limiy dasturlar yordamida harflarni o'rgatish jarayonini yanada samarali tashkil etish mumkin. Masalan, harflarning yozilishini animatsiya shaklida namoyish etish, interaktiv mashqlar bajarish, kompyuterda yozuv malakalarini shakllantirish imkoniyati mavjud.

Integratsiyalashgan darslar. Ona tili darslarini tasviriy san'at, musiqa, jismoniy tarbiya fanlari bilan integratsiyalash orqali harflarni o'rganish va yozish mashqlari samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, harflarni rasm sifatida tasvirlash, harflar haqida qo'shiqlar kuylash, harakatli o'yinlar orqali harflarni mustahkamlash kabi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1-sinf ona tili darslarida harflarni o'rganish va yozish mashqlarini samarali tashkil etish o'quvchilarning savodxonlik darajasiga, yozma nutqining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalar va takliflarni ilgari surish mumkin:

1. 1-sinfda yozuvga o'rgatish tizimli, bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirilishi lozim. Tayyorgarlik, asosiy va yakuniy davrlarning har biri o'ziga xos metodik xususiyatlarga ega bo'lib, ularga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

2. Harflarni o'rgatishda tovushdan harfga o'tish, elementlari o'xshash harflarni guruhlab o'rganish, namuna asosida yozish va mustaqil mashqlar bajarish kabi usullar samarali hisoblanadi.

3. Yozuv malakalarini shakllantirishda turli xil mashqlardan (tayyorgarlik, elementli, harf yozish, bog'lamali, so'z va gap yozish, ijodiy mashqlar, diktantlar) foydalanish maqsadga muvofiq.

4. Yozuv gigiyenasi qoidalariga (to'g'ri o'tirish, daftarni to'g'ri joylashtirish, ruchkani to'g'ri ushlab, yorug'likning to'g'ri tushishi) rioya qilish o'quvchilar salomatligini saqlash va sifatli yozuv malakalarini shakllantirishning muhim shartidir.

5. O'quvchilarning tipik xatolarini o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tizimli ish olib borish yozuv sifatini oshirishga xizmat qiladi.

6. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar va AKT vositalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning yozuvga bo'lgan qiziqishini orttirish imkonini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Urazboyeva, S. (2025). 3-sinfda unli va undosh harflar ustida mashqlar ishlash metodikasi. Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(6), 136–138.

2. K.Qosimova. O'qish va yozuv darslarining turlari. O'qish va yozuv darslariga qo'yiladigan talablar. (2023).

3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

4. [www.pedgog.uz](http://www.pedgog.uz)